



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 22-28 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA AHOI DAROMADLARI TABAQALASHUVI VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA FISKAL MEXANIZMLARNING O'RNI



Vosiqov Ulug'bek Alisherovich,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD.

Annotatsiya: Maqolada aholi daromadlarining tabaqalashuvi va uning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar tizimlashtirilgan. Rivojlangan davlatlarda daromadlar tengsizligini tartibga solishning o'ziga xos jihatlari iqtisodiy maktab vakillarining ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan va ularning o'ziga xos jihatlari baholangan.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, kambag'allik, daromadlar taqsimoti, daromad solig'i, ijtimoiy himoya, inson taraqqiyoti, ta'lim, sog'liqni saqlash.

Abstract. The article systematizes the stratification of household incomes and the factors contributing to its emergence. It presents a comparative analysis of the distinctive features of income inequality regulation in developed countries, evaluating the unique characteristics of various economic schools of thought. Scientific approaches to understanding and assessing inequality in society are analyzed and classified.

Keywords: household income, poverty, fiscal policy, income distribution, income tax, social protection, human development, education, healthcare.

Аннотация. В статье систематизирована стратификация доходов домохозяйств и факторы, способствующие ее возникновению. Представлен сравнительный анализ особенностей регулирования неравенства доходов в развитых странах, оценены уникальные особенности различных экономических школ. Проанализированы и классифицированы научные подходы к пониманию и оценке неравенства в обществе.

Ключевые слова: доходы домохозяйств, бедность, фискальная политика, распределение доходов, подоходный налог, социальная защита, развитие человеческого потенциала, образование, здравоохранение.

Kirish

Bugungi kunda aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutning ortib borishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, daromadlar tengsizligi chuqurlashgani sari iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi buziladi va kambag'allik darajasi oshadi. Ushbu muammoni hal qilishda davlatning byudjet tizimi orqali daromadlar va xarajatlarni samarali boshqarish hamda qayta taqsimlash mexanizmlarini joriy etish asosiy vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

Davlat byudjeti orqali adolatli soliqqa tortish va ijtimoiy transferlar yordamida yuqori hamda past daromadli aholi o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, kambag'al

qatlamlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va inson kapitaliga investitsiya kiritish imkoniyatlari mavjud. Xalqaro tajribaga ko'ra, adolatli soliq tizimlari, samarali ijtimoiy xarajatlar hamda sog'liqni saqlash va ta'lim sohasiga yo'naltirilgan subsidiyalar aholi farovonligini oshirishda va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omillar hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

M. Vaxler o'z tadqiqotida rivojlangan mamlakatlarda daromadlar tengsizligiga globallashuv va mamlakat ichki institutlarining ta'sir darajasini chuqur tahlil qilgan [1]. Tadqiqot asosan tashqi savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalar hamda xalqaro moliyaviy oqimlarning mamlakatlardagi daromadlar tengsizligiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot muallifi tomonidan keltirilgan xulosalarga ko'ra, globallashuv omillari daromadlar tengsizligi yoki davlatlarning daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan. Biroq mamlakat ichki institutlari, xususan, aholi faolligi, hukumat tarkibidagi o'zgarishlar hamda mehnat bozori institutlarining rivojlanish darajasi daromadlar tengsizligining shakllanishiga sezilarli ta'sir etishi asoslab berilgan.

Shvetsiya mamlakatida amalga oshirilgan tadqiqotlar daromadlarni qayta taqsimlashning o'ziga xos jihatlari va samaradorligini ochib berganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Jumladan, J. Palme tomonidan olib borilgan tadqiqot Shvetsiyada aholi daromadlarining soliqdan oldin va keyingi taqsimlanish xususiyatlarini tahlil qilgan [2]. Tadqiqotda taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, soliqdan oldin Jini indeksi qiymati o'rtacha 0,45 atrofida bo'lib, soliqlardan so'ng esa 0,23-0,25 oralig'iga pasaygani qayd etilgan. Bundan tashqari, mamlakatdagi kambag'allik darajasini pasaytirishda ijtimoiy nafaqalar mexanizmi muhim o'rin tutishi va aynan shu orqali kambag'allik darajasi taxminan 50 foizga qisqarishi asosli dalillar bilan isbotlangan.

J. Klavus va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va uning daromadlar taqsimotidagi o'rni batafsil o'rganilgan [3]. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, sog'liqni saqlash tizimiga kiritilgan mablag'larga nisbatan aholi tomonidan tibbiy xizmatlardan foydalanish teng taqsimlangan bo'lsada, nisbatan past daromadli guruhlarining ushbu xizmatlardan ko'proq foydalanishga ehtiyoji mavjudligi aniqlangan. Shu bois, sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish samaradorligini oshirish orqali aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish imkoniyatlari mavjud ekanligi ta'kidlangan.

P. Roykonen o'z tadqiqotida 1865–2019-yillar oralig'ida daromadlar tengsizligining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan [4]. Uning fikricha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sanoatlashuv jarayonlari natijasida daromadlar tengsizligi sezilarli darajada kuchaygan bo'lib, 1990-yillarda esa kapital daromadlari ortishi fonida tengsizlik yana keskin o'sgan. So'nggi yillarda esa daromadlar tengsizligi muayyan darajada barqarorlashgani ta'kidlangan.

AQSh misolida J. Bor va boshqa mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda daromadlar tengsizligining oshishi bilan aholining salomatlik holatidagi o'zgarishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik batafsil tahlil qilingan [5]. Tadqiqotchilar tomonidan daromadlar tengsizligi oshgan davrlarda aholi turli guruhlarining o'rtacha umr ko'rish davomiyligida sezilarli farqlar yuzaga kelgani, ya'ni daromadlar tengsizligi

bilan salomatlik ko'rsatkichlarining bevosita o'zaro aloqadorligi ilmiy asoslangan xulosalar orqali tasdiqlangan.

Tahlil va natijalar:

Shvetsiyada aholining daromadlari o'rtasidagi tabaqalanishni kamaytirishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu mamlakat tajribasining asosiy xususiyati bir xil malakaga ega bo'lgan, ammo iqtisodiyotning turli tarmoqlarida – davlat yoki xususiy sektorda band bo'lgan xodimlar o'rtasidagi ish haqi farqlarini kamaytirishga qaratilganligidadir. Ushbu jarayonda turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ta'minlovchi kasaba uyushmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, aynan kasaba uyushmalari faoliyati natijasida bir xil kasbiy tayyorgarlikka ega, ammo turli sektorlarda ishlayotgan xodimlar o'rtasida ish haqi va umumiy daromadlar farqi qisqartirilmoqda.

Ko'pchilik Yevropa mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Irlandiya, Fransiya va Italiyada ijtimoiy norozilik va iqtisodiy keskinlikning oldini olish maqsadida progressiv daromad solig'i mexanizmi keng qo'llaniladi. Mazkur soliq mexanizmi orqali yuqori daromad oluvchi fuqarolar uchun yuqori stavka, kam daromadli aholi qatlamlari uchun esa quyi stavka belgilanadi va shu orqali umumiy daromadlar o'rtasidagi tafovut samarali tarzda kamaytiriladi.

Shvetsiyada aholi daromadlarini qayta taqsimlash mexanizmi bir necha bosqichli soliq yig'implari orqali amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda mahalliy munitsipal soliqlar mavjud bo'lib, ularni barcha mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar to'lashlari shart. Ikkinchi bosqichda esa ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliqlar mavjud bo'lib, ular taxminan 31 foiz stavkada belgilanadi va ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish uchun muhim manba hisoblanadi. Mazkur soliq hisobidan shakllangan mablag'lar mamlakatda aholining kam daromadli qatlamlarini qo'llab-quvvatlovchi turli ijtimoiy dasturlarga yo'naltiriladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ijtimoiy soliqning qayta taqsimlanish holati

Soliq turi	Stavka (%)
Pensiya sug'urtasi (Pension insurance)	10.21%
Tibbiy sug'urta (Health insurance)	3.55%
Ishsizlik sug'urtasi (Unemployment insurance)	2.64%
Bolalar nafaqasi (Parental insurance)	2.60%
Nogironlik va hayot sug'urtasi (Survivor's insurance)	0.60%
Mehnatga layoqatsizlik sug'urtasi (Work injury insurance)	0.20%
Jami:	31.42%

Manba: www.scb.se ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

1-jadvaldan ko'rinadiki, ijtimoiy soliq orqali shakllangan mablag'larning qanday tartibda ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi aniq belgilangan. Bu esa, davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya dasturlarida ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlash imkonini yaratadi. Boshqacha aytganda, budjetga ijtimoiy soliqlar orqali jamlangan mablag'larning aniq maqsadli yo'naltirilishi aholining ijtimoiy himoyasi samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ushbu mexanizm orqali ijtimoiy

himoya dasturlariga ta'sir etuvchi nomonetar omillarni muntazam ravishda monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, ijtimoiy soliqlarni qo'llashda ayrim imtiyozlar va yengilliklar mavjud bo'lib, ular aholi daromadlari va bandligini ta'minlashdagi samaradorlikni oshirish uchun sharoit yaratadi. Xususan, korxonalarda 26 yoshgacha bo'lgan yosh ishchilar va pensionerlarni ish bilan ta'minlagan hollarda ish beruvchilar uchun kamaytirilgan soliq stavkalari amal qiladi. Ushbu chora-tadbirlar davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq moliyaviy yuklamalarni maqbul darajada ushlab turish imkonini beradi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish amaliyotida progressiv stavkalar tizimidan keng foydalaniladi. Bunday tartibda yuqori daromad oluvchilar yuqori stavkalar asosida soliqqa tortiladi, natijada moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy tenglik ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kapitaldan olinadigan daromadlar ham alohida soliqqa tortiladi, bu esa moliyaviy resurslarni adolatli taqsimlash va iqtisodiy tenglikni ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi bir necha shaklda amalga oshiriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Finlyandiyada davlat daromad solig'i stavkalari


Yillik daromad (yevro)	Soliq stavkasi
0-18600	0 foiz
18601-27900	6 foiz
27901-45900	17,25 foiz
45901-80500	21,25 foiz
80501 va undan yuqori	31,25 foiz

Manba: www.infofinland.fi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan tabaqalashtirilgan stavkalar asosida belgilanadigan daromad solig'i mavjud. Mazkur soliq turining o'ziga xos jihati shundaki, soliq stavkasi fuqarolarning daromad darajalariga mos ravishda progressiv tarzda o'zgarib boradi.

Ta'kidlash joizki, Finlyandiyada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda ikki asosiy jihatni kuzatish mumkin. Birinchidan, daromad miqdoridan qat'i nazar, fuqarolardan yig'iladigan soliq mablag'lari davlat budjetining ikki xil yo'nalishiga bir vaqtning o'zida yo'naltiriladi. Bunday mexanizm, o'z navbatida, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun barqaror va ishonchli moliyaviy manbalarni shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mamlakatda tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish maqsadida alohida soliq turi ham joriy etilgan bo'lib, mazkur soliqdan tushgan mablag'lar bevosita sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun yo'naltiriladi. Ushbu amaliyot sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. 2012-2022 yillarda Finlyandiyada kambag'allik riskidagi aholi ulushi, jinslar bo'yicha foizda

Manba: www.infofinland.fi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Fikrimizcha, Finlyandiyada soliqlarning daromadlarni qayta taqsimlash vositasi sifatida qo'llanilishi daromadlar tengsizligini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm orqali davlat soliq tushumlarini samarali boshqarish hamda ularni inson kapitali rivojlanishiga yo'naltirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun alohida soliq stavkalarining belgilanganligi sog'liqni saqlash sohasining moliyaviy barqarorligini oshirib, aholining tibbiy xizmatlardan kengroq foydalanishiga imkon yaratmoqda.

Shu munosabat bilan, Finlyandiyaning inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha yuqori o'rinlarda turishini qayd etish lozim. Ammo mamlakatda hali ham kambag'allik xavfi ostida bo'lgan aholi qatlamlari mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

1-rasmdagi tahlil natijalariga ko'ra, jinslar kesimida kambag'allik xavfi darajasi o'rganilganda, ayollar orasida ushbu xavf erkaklarga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda. Biroq, 2020-yilda yuz bergan global pandemiya sharoitida erkaklar orasida ham kambag'allik xavfining keskin oshganligi kuzatildi. Bu esa inqiroz davrida daromadlar tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. AQShda 1970-2022 yillarda Jini indeksi

Manba: www.statista.com ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jamiyatdagi daromadlar tengsizligini kamaytirish maqsadida ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan maxsus soliq mexanizmlarini joriy etish samarali natijalarni berishi mumkin. Shu bilan birga, kambag'allik holatini aniqlash va baholash jarayonida jinsiy jihatdan tabaqalashtirilgan tahlillardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, daromadlar tengsizligini baholashda faqat pul daromadlariga asoslangan monetar yondashuv har doim ham to'liq va xolis xulosalarni shakllantira olmaydi. Shu nuqtai nazardan, tengsizlik darajasini aniqlash va tahlil qilish jarayonida monetar ko'rsatkichlar bilan birgalikda nomonetar omillar — xususan, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash imkoniyatlari, inson kapitalining rivojlanish darajasi kabi ijtimoiy ko'rsatkichlarning ham hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida daromadlar bo'yicha notenglikning saqlanib qolishi, monetar va nomonetar omillarni o'zaro uyg'unlashtirilgan holda qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda. Mamlakatda progressiv soliq stavkalari amalda keng qo'llanilishiga qaramasdan, yuqori daromadli aholi guruhlarining daromadlari muntazam ravishda o'sib borishi kuzatilmoqda. Ushbu holat esa, aholining daromadlari taqsimotida muayyan barqarorlikka erishishni murakkablashtirib, tenglikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Xulosa

Shvetsiya mamlakati tajribasini umumlashtirgan holda, daromadlar tengsizligini samarali kamaytirishga yo'naltirilgan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz. Birinchidan, soliq mexanizmlarini fuqarolarning daromad manbai va hajmini inobatga olgan holda tabaqalashtirish hamda davlat tomonidan daromadlarni qayta taqsimlash funksiyasini qat'iy tartibda amalga oshirish zarur. Ikkinchidan, davlat budjeti daromadlarini aniq ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltirish orqali moliyaviy yordamning manzilliligini oshirish va yordam olish mexanizmlarini shaffof tartibga solish lozim. Uchinchidan, yuqori daromadli aholi qatlamiga soliq imtiyozlari berilishining oldini olish hamda kapital va aktivlardan olinadigan daromadlarga qat'iy va tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini joriy qilish orqali moliyaviy tenglikni mustahkamlash zarur. To'rtinchidan, mehnat bozoridagi muvozanatni ta'minlash va past daromadli aholi qatlamlarining iqtisodiy yo'qotishlarini minimallashtirishga qaratilgan kompleks makroiqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, inson kapitalini shakllantiruvchi nomonetar omillarning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Beshinchidan, kam ta'minlangan aholining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish uchun ularga ajratilayotgan kredit mablag'larining bir qismini naqd pul shaklida mustaqil tasarruf etish imkoniyatini yaratish orqali moliyaviy mustaqillikni ta'minlash va ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahler, V. A. (2004). Economic globalization, domestic politics, and income inequality in the developed countries: A cross-national study. *Comparative Political Studies*, 37(9), 1025-1053.
2. Palme, J. (2006). Income distribution in Sweden. *The Japanese Journal of Social Security Policy*, 5(1), 16-26.

3. Klavus, J., & Häkkinen, U. (1996). Health care and income distribution in Finland. *Health Policy*, 38(1), 31-43.
4. Roikonen, P. (2022). Income inequality in Finland, 1865–2019. *Scandinavian Economic History Review*, 70(3), 234-251.
5. Bor, J., Cohen, G. H., & Galea, S. (2017). Population health in an era of rising income inequality: USA, 1980–2015. *The Lancet*, 389(10077), 1475-1490.
6. Statistics Sweden (SCB). Official Statistics of Sweden. Retrieved May 2, 2025, from <https://www.scb.se>
7. InfoFinland. Information about living in Finland. Retrieved May 2, 2025, from <https://www.infofinland.fi>
8. Statista. Statistics and Market Data on Over 80,000 Topics. Retrieved May 2, 2025, from <https://www.statista.com>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

